



O'ZBEKISTONDA SSRDA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING O'RNATILISHI VA UNING OQIBATLARI.

Xasanboyeva Gulxayo Ximmat qizi

O'zbekiston tarixi kafedrası katta o'qituvchisi

Gulhayoxasanboyeva29@gmail.com

+99891 1102903

Annotatsiya: Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so'ng qishloq xo'jaligining ahvoli berilgan. Xususan paxta yakkahokimligining kuchaytirilishi uning oqibatlari yoritilgan. Ya'ni, qishloq xo'jaligida paxta va paxta sanoatiga e'tiborning kuchaytirilganligi, boshqa sohalarni oqsab qolishiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga kolxozlarda ijobiy o'zgarishlar bo'lganligi ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: sovet hukumati, paxta yakkahokimligi, gektar, sentner, tonna, moddiy texnik baza, xomashyo.

Sovet hukumati ikkinchi jahon urushidan so'ng ham qishloq xo'jaligini bir tomonlama rivojlantirish yo'lidan olib bordi va asosan paxtachilik taraqqiyotiga e'tiborini qaratdi. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining kuchaytirilishi mamlakat taqdirini halokat yoqasiga olib keldi. Chunki, markaz rahbarlari O'zbekiston aholisini so'zsiz ravishda bo'ysunishlarini va chiqarilgan qarorlarini muhokama qilmasdan bajarishlarini talab qilishar edi. Xususan, 1948-yil 2-iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Qishloq xo'jaligida mehnat faoliyatidan qasddan bo'yin tovlovchi va jamiyatga qarshi tumanlariga ko'chirish to'g'risidagi buyrug'i" e'lon qilindi[1;526]. Tabiiyki, bu jarayon respublikada 1948-yil 13-iyundan boshlab qo'pol ravishda amalga oshirildi. Sovet va xo'jalik rahbar xodimlari ko'p hollarda buyruqlardan o'zlariga yoqmagan shaxslardan o'ch olish maqsadida foydalanishgan. Bunday holatga tushgan oilalar SSSRning uzoq o'lkalariga surgun qilinganlar. Bu o'lkalar ishlash uchun qiyin sharoitlarga ega bo'lgan hududlardan iborat bo'lib, asosan eng og'ir jinoyat qilgan jinoyatchilar yuborilgan. Ikkinchi jahon urushidan keyin O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligi va paxtachilikning muttasil o'sib borganligini quyidagi faktlar misolida ham ko'rish mumkin. 1946–1950 yillarda paxtachilikka ajratilgan ekin maydonlari 148 ming gektarga ko'payib, hosildorlik 15,6 sentnerdan 20,7 sentnergacha ko'tarildi. Paxta ekin maydonlarining ko'payishi, asosan, boshqa qishloq xo'jalik ekinlari, shu jumladan, don ekinlari maydonining qisqartirilishi hisobiga yuz berdi. Paxta va beda almashlab ekish uchun ajratiladigan sug'oriladigan maydonlarni 1945-yildagi 947 ming gektardan 1947-yilda 1287 ming gektarga, 1953-yilda 1500 ming gektarga yetkazish belgilangan edi. Ayni paytda g'alla, qand lavlagi, poliz va sabzavot ekiladigan maydonlar qisqarib bordi. 1949-yil 4-fevral kuni paxtaga davlat tayyorlov bahosini oshirish haqida hukumat qarori e'lon



qilindi. Ilgari 1 tonna paxta xomashyosiga 1047 so'm to'langan bo'lsa, 1949-yildan boshlab 2200 so'mga ko'tarildi, ya'ni 1 tonna paxta xomashyosi 3 tonna bug'doyga tenglashtirildi. Paxtakorlar mehnati juda ham past baholanib qolaverdi, 1 tonna paxta yetishtirish uchun 1 tonna bug'doy yetishtirishga nisbatan 10—15 marta ko'p mehnat sarflash talab qilinardi. Shu maqsadda katta hajmdagi mablag'larni sarflab, paxtachilikning moddiy-texnik bazasini mustahkamladi. Sovet hukumatining maqsadi qanday qilib bo'lsa-da, ko'proq paxta olish edi. Hattoki, qishloq xo'jaligiga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlarning miqdori ham oshirildi. Umumiy hisobda olinganda, 1940-yildan 1985-yilgacha paxta hosili qariyb to'rt baravarga ortdi. Lekin paxta yetishtirishning bu darajada o'sishi moddiy texnik bazasining yaxshilanishi yoki, mineral o'g'itlar bilan bog'liq emas edi. Aksincha, mineral o'g'itlarning ko'p ishlatilishi yerlarni unumsizlanishiga olib kelish bilan birga aholi sog'lig'iga ham katta zarar keltirardi. Bu davrda paxta tayyorlashning ortib borishiga paxta maydonlarining kengaytirilishi sabab bo'lgan. Birinchidan, Mirzacho'l, Farg'ona, Qarshi cho'llarining o'zlashtirilishi paxta maydonlarining kegaytirgan. Ikkinchidan esa respublikadagi bog'rog'lar va yaylovlar o'rniga paxtazorlar tashkil etilgan. Yaylovlarning paxta maydonlariga aylantirilishi natijasida chorva mollari qisqarib ketdi. Bunday vaziyat aholini go'sht, sut va sut mahsulotlari iste'molini kamayishiga olib keldi. O'zbekistonda 1960-1986 yillarda 1940-yilga taqqoslaganda aholining o'sish sur'atlari 282,2 foizni tashkil etgani holda paxta yetishtirish 388,4 foizni tashkil etgan, sigirlar, qo'y-echkilar va otlarning o'sishi esa aholi o'sishidan juda ham orqada qolgan[1;536]. Yangi yerlarni o'zlashtirish uchun aholi zich bo'lgan hududlardan ko'chirish ishlari boshlangan. O'zbekistonda asosan oblastlararo ko'chirish amalga oshirildi. Ya'ni, Mirzacho'l, Farg'ona, Jizzax dashtlariga respublikaning turli rayonlaridan aholi ko'chirib keltirildi. Jizzax dashti ham eng yirik paxtachilik rayonlaridan biri bo'lib qoldi. Bu dasht o'zlashtirilishi bilan u yerga aholi ko'chirib keltirish jadallashdi. Qo'riq yerlar o'zlashtirila boshlangandan buyon to 1980-yilgacha yetti yilda yangi tashkil etilgan xo'jaliklarga 4311 oila ko'chirildi, shulardan 3976 oila shu yerning o'zida muqim yashab qoldi[4;12].

Shunday qilib, paxtachilikka ko'p e'tibor berilishiga qaramay urinishlar kutilgan natijani bermadi. Masalan, 1975-1980 yillarda paxtachilikni rivojlantirish sohasida olimlar olib borgan tadqiqotlar natijasida paxtaning 20 ta yangi istiqbolli navlari yaratildi. Jumladan, paxta ekiladigan maydonlarning 65%ini ishg'ol etuvchi "Toshkent" navi ular ichida ancha serhosil chiqdi. Biroq bu yangiliklar ham umumiy hosildorlikni oshirish imkonini bermadi. Bunga mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanmaslik sabab bo'ldi. Raqamlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda 1960-1980 yillarda gektar boshiga paxtadan olinadigan hosil ko'payishi o'rniga kamayib ketdi. Agar 1966-1970 yillarda har gektar yerdan o'rtacha 25,1 sentner, 1970 yilda esa 26,3 sentner hosil olingan. 1986-1987 yillarda bu ko'rsatkich 23,7 sentnerga va 1987 yilda esa 23,1 sentnerga tushib qolgan[7;89].

Xulosa qilganda, sovet hokimiyatining iqtisodiy rejalashtirish siyosati asosida hududlarni ixtisoslashtirish orqali boshqarish bilan mintaqalarni bir-biriga bog'ladi.





Rejalashtirilgan yo'l-yo'riqlar odatdagidek sun'iy jadallashtirishga asoslandi. Iqtisodiy sohada ko'proq paxtaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdek boshqaruvga amal qilindi. Shuningdek, amalda markazlashtirilgan rejalashtirish, ishlab chiqarish va taqsimot xalqning tashabbuskorligi va moddiy manfaatdorligini bo'g'ib qo'ydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jo'rayev N, Karimov Sh. O'zbekiston tarixi. – T.:Sharq, 2011.
2. Murtazoyeva R. O'zbekiston tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2003.
3. Razzoqov. A. O'zbekiston paxtachiligi tarixi. – T.: O'zbekiston, 1994.
4. Yo'ldoshev M. Qishloq xo'jaligidan foydalanishda ishchi kuchidan ratsional foydalanish. – T.: O'zbekiston, 1982.
5. Yaqubova D. O'zbekistonda paxta yakkahokimligining o'rnatilishi va uning natijalari. – T.: Tafakkur avlodi, 2021.
6. O'zbekiston SSR tarixi. To'rtinchi tom. – Toshkent, 1971.
7. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. Стат. ежегод. –Т.: Узбекистан, 1988.
8. Xasanboyeva G. The Role of MTS (Machine-Tractor Station) in Agriculture after the Second World War. Exellencia international multi-disciplinary journal of education. Volume 2. Issue 11.2024. - 230-232 bet
9. Xasanboyeva Gulxayo. O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar./Models, and methods for increasing the efficiency of innovative research international scientific-online conference.. –Berlin. 11-June, 2024.–117-120 betlar.
10. w.w.w. arxiv.uz